

TASDIQLAYMAN
«Unitel» MChJ bosh direktori


Malinovskiy A.
« 11 » 10. 2023. y.

**Haqi keyin to'lanuvchi xizmat tizimi (Postpaid) shartlari bilan ko'chma radiotelefon
(uyali) aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Shartnomaning
NAMUNAVIY SHARTLARI**

1. Umumiy qoidalar

1.1. PostPaid to'lov shartlari (bundan keyin - «**Shartlar**») bilan ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Shartnomaning ushbu Namunaviy shartlar Operator tomonidan ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa xizmatlarini taqdim etishda Operator va Abonent o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Ushbu Shartlar, Shartnoma blanki Abonentning rekvizitlari shuningdek, ilovalarni o'z ichiga olgan ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa xizmatlarini xizmat ko'rsatish bo'yicha Ommaviy Shartnoma (bundan keyin - «**Shartnoma** yoki **Oferta**») hisoblanadi.

1.3. Ushbu Shartnomaning maqsadlarini ifodalash uchun quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

Abonent – aloqa xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Abonent shartnomasi – Abonent va Operator o'rtasida PostPaid hisob-kitob tizimining shartlarini o'z ichiga olgan, ro'yxatdan o'tish blankasi, narxlar-varaqalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachiligi orqali hisob-kitob bo'yicha qo'shimcha kelishuv, ushbu taxminiy shartlar va ularga qo'shimchalardan iborat ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Operatorning rasmiy veb-saytida (<https://beeline.uz/b2b/ru/>) joylashtirilgan Shartnoma. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi orqali amalga oshirilishi orqali hisoblanadigan qo'shimcha kelishuv

Abonent raqami – Abonent raqami -- Shartnomasining amal qilish muddati davomida Abonent uskunasi boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikasiya tarmoqlarida identifikasiya qilinib, xizmat ko'rsatish uchun Abonentga ajratiladigan raqam;

Abonent uskunasi – Abonentning mulki bo'lgan yoki unga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun berilgan, Kompaniya tarmog'iga ulanadigan va u orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni qayta ishlash, o'zgartirish, uzatish uchun mo'ljallangan texnik qurilma. Abonent uskunasi O'zbekiston Respublikasida amaldagi standartlarga muvofiq, uskunaning ushbu turiga qo'yiladigan belgilangan texnik talablarga javob berishi kerak;

Abonent to'lovi – abonentning elektron hisobida Kompaniyaning Narxnoma varaqalarda belgilangan miqdorda hisobga olinadigan summa miqdori, uning miqdori ma'lum bir hisob davri mobaynida qabul qilingan aloqa xizmatlarining hajmiga bog'liq bo'lmay va abonentga aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Kafolat to'lovi - Kafolat to'lovi - roumingda va xalqaro aloqa xizmatlaridan foydalanish uchun amalga oshirilgan kafolatli to'lovlar.

Aksept - mazkur Ofertaning barcha shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilinishi, ushbu shartnomaning 2-bo'limida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Operator tarmog'iga kirish – Operator taqdim etadigan xizmatlardan foydalanish uchun Operator tarmog'iga kirish imkoni.

Tarifikasiya birligi – Operator tanlagan tarifikasiya tizimiga ko'ra Abonent tomonidan haqi to'lanadigan telefon so'zlashuvi (ulanishi) davomiyligi birligi.

Operatorning xizmat ko'rsatish doirasi – Litsenziyalik kelishuv asosida Operator aloqa xizmatlarini ko'rsatish huquqiga, O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi normativ aktlar va/yoki standartlarga (boshqaruvchi xujjatlar) mos sifatda aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan hudud.

Kredit limit – Operator tomonidan har bir Abonent uchun belgilangan aloqa xizmatlarining ehtimoliy miqdori.

Kontent – axborot, ko'ngil ochar xususiyatga ega SMS, MMS, GPRS orqali olingan matnli yoki multimedia ma'lumotlari.

Kontent xizmatlar - bu texnologik jihatdan harakatdagi radiotelefon aloqa xizmatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan va ularning iste'mol qiymatini oshirishga yo'naltirilgan xizmatlar turi bo'lib, uchinchi shaxslar bilan birgalikda taqdim etiladi, ularning qiymatini Abonent tomonidan to'lanadi.

Shaxsiy kabinet - bu o'z xizmatlaringizni "Korporativ mijozlar uchun xizmatlarni boshqarish" tizimi orqali Internet-interfeys orqali boshqarish

Alohida tarif – Operator tomonidan tarif rejasiga kirmaydigan alohida xizmat uchun belgilanadigan tarif. Alohida tarif biror-bir tarif rejasi tanlovi bilan shartlanmagan. Alohida tariflar yoki Operatorning Narxnoma varaqlarida, yoki Abonent bilan tuzilgan Shartnomada, yoki Internetda (Operatorning rasmiy WEB-saytida), yoki ommaviy axborot vositalarida ko'rsatiladi.

Operator ofisi – Operatorning Toshkent shahridagi bosh ofisi va uning O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi filiallari ofislari. Operatorning filiallar ofislari ro'yxati va ularning ish tartibi Operatorning ommaviy Internet saytida ko'rsatiladi va aniq belgilangan sana bo'yicha yangilanadi. Ro'yxat vaqti-vaqti bilan o'zgarishi mumkin (pochta manzili, mansabdor shaxslar va boshqalar).

Oldindan to'lov – Operator telekommunikatsiyasi xizmatlari ko'rsatilishi uchun abonentning shaxsiy hisob raqamiga oldindan amalga oshirilgan to'lov.

Narxnoma varag'i (Price List) – Operator tomonidan belgilanadigan tarif rejalar va alohida tariflarning yig'indisi.

Foydalanishga ruxsat berish – Operator tomonidan Abonentga Abonentlik raqamini taqdim etish va uni tarmoqqa ulanish operatsiyalarini bajarish.

Radiotelefon ulanish davomiyligi - Operator uskunasi chaqirilayotgan tomonning javobi aniqlangandan boshlab Operator uskunasi tomonlarning biri radiotelefon ulanishni o'chirishini aniqlashgacha bo'lgan vaqtning intervali davomiyligi.

Hamkorlar - Operator bilan tuzilgan shartnomalar asosida har qanday xizmatlarni taqdim etish yoki targ'ib qilish, shu jumladan Operatorning ish jarayonlariga xizmat ko'rsatish uchun Operator tomonidan jalb qilingan uchinchi shaxslar, shuningdek Operator tarmog'i orqali Abonentlarga xizmat ko'rsatuvchi provayderlar;

Shaxsiy ma'lumotlar - elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy vositalarda qayd etilgan, ma'lum bir Abonentga tegishli yoki uni aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlar. Abonentlar to'g'risidagi ma'lumot quyidagilarni o'z ichiga oladi: Abonent - jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; Abonentning manzili, taxallusi, abonent raqamlari va Abonent va uning abonent uskunalarini noyob identifikatsiyalashga imkon beruvchi boshqa ma'lumotlar. Bunday

ma'lumotlar ro'yxati Operator tomonidan tasdiqlanadi va Operatorning rasmiy Web-saytiga joylashtiriladi;

Ro'yxatga olish blanki - Abonent shartnomasining ajralmas qismi bo'lib, unda Abonent Shartnoma shartlari bilan tanishishi va abonent haqidagi ma'lumotlarni va Shartnomaning boshqa shartlarini o'z ichiga olgan abonent tomonidan to'liq va so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi.

Radiotelefon ulanish – abonentlardan hech bo'lmasa biri axborot almashish imkonini ta'minlab beruvchi Tarmoq Abonenti bo'lgan tarmoq aloqa xizmatlari foydalanuvchilarining Abonent jihozlari o'rtasida radiotelefon aloqaning o'rnatilishi.

Rouming (Roaming) – Operator abonentining shu davlatdagi boshqa operatorning xizmat ko'rsatish hududida boshqa Operatorning tarmog'iga ulanish(milliy rouming) yoki boshqa davlatdagi boshqa Operatorning xizmat ko'rsatish hududida boshqa operatorning tarmog'iga ulanish (xalqaro rouming) imkonini beruvchi xizmat. Operatorning rouming-hamkorlari va ularning davlatlari ro'yxati faqat ma'lum sana uchun amal qiladi va vaqti-vaqti bilan o'zgarib turishi mumkin. Rouming-hamkorlar va davlatlar ro'yxati, va shuningdek rouming xizmatlari tariflari Operator tomonidan rasmiy WEB-saytda hamda matbuotdagi axborot materiallarida bosib chiqariladi.

Tarmoq – ko'chma uyali aloqa Tarmog'i bo'lib, texnika vositalarining (kommutatsiya va radio xizmati, abonentlik jihozlari, ulanish liniyalari, inshootlari va shu kabilar) yig'indisidir, shular yordamida Abonentga ko'chma radiotelefon aloqa xizmatlari taqdim etiladi (telefon, ma'lumotlar uzatish va boshqa qo'shimcha xizmatlar.)

SIM -karta (bundan buyon matnda SIM karta deb yuritiladi) - ichiga mikrosxema o'rnatilgan, olinuvchi identifikatsiya moduli. Uning yordamida abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi; Abonentga identifikatsiyalanish, kompaniya tarmog'iga kirish (ulanish) va aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun ajratilgan sim-kartaning qiymati abonent tanlagan tarif rejasining narxiga kiradi.

eSIM – abonent kurilmasining virtual identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent kurilmasining identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydana olishi, shuningdek , abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish taminlanadi;

SMS – qisqa xabarlar xizmati.

Tarifkatsiya tizimi – aloqa xizmatlarining har xil turlariga va to'plamiga ko'rsatiladigan xizmatlar haqini hisoblash usuli.

Tariflar – ma'lum turdagi aloqa xizmati narx(lar)i.

Tarif reja – aloqa xizmatlarining ma'lum to'plamiga muvofiq belgilangan tariflar ro'yxati.

Tarmoqqa kirishni taqdim etishning texnik imkoni – ajratilgan radiochastota resursini inobatga olgan holdagi abonent raqamlari hajmida va/yoki aloqa kanallarida, shu jumladan radiokanallarda bo'sh raqamlarning mavjudligi.

Tranzaksiya - bu Abonentning elektron hisobvarag'i bilan amalga oshiriladigan operatsiya bo'lib, uning natijasida ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'lar hisobdan echiladi. Operator quyidagilarni tranzaksiyaga tenglashtirishga haqli:

- tugallangan chiquvchi qo'ng'iroq (davomiyligi 0 soniyadan ortiq), shu jumladan roumingda amalga oshirilgan (tez yordam xizmatlariga va Operatorning bepul xizmat raqamlariga qo'ng'iroqlar bundan mustasno);

- tarmoq ichidagi va boshqa operatorlar abonentlariga barcha chiquvchi SMS va MMS;
- barcha kiruvchi pullik SMS;

abonent to'lovlari hisobdan echish (shu jumladan, "Raqamni saqlash" xizmati uchun to'lovlarni olib tashlash);

- barcha pullik xizmatlarni boshqarish operatsiyalari;
- barcha tugallangan ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish seanslari;

Aloqa xizmatlarini taqdim etishning texnik imkonlari – Operator xizmati hududida ishlab turgan va Abonentga tegishli aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnika vositalari va aloqa inshootlarining mavjudligi.

Operator xizmatlari - radiosignallarini qabul qilish, qayta ishlash, uzatish bo'yicha xizmatlar, asosiy va qo'shimcha aloqa xizmatlari va boshqa xizmatlar/servislarining ro'yxati Operator tomonidan belgilanadi, uyali aloqa tarmog'ining texnik imkoniyatlariga qarab, Operator tomonidan abonentni o'zi yoki tuzilgan shartnomalar asosida uchinchi shaxsni jalb etgan holda tarmoqqa ulanishini ta'minlash uchun taqdim etiladi. Xizmatlar telekommunikatsiya sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan berilgan tegishli Litsenziyalar asosida taqdim etiladi.

Internet tarmog'iga ulanish xizmati – Internet tarmog'idan foydalangan holda ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish xizmati.

Operatorning vakolatli ofisi – Operatorning mansabdor shaxsi imzosi va muhri bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat asosida Abonent bilan ko'chma (uyali) radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartnomasini tuzish, va/yoki Operator taqdim etgan xizmatlar haqini qabul qilish huquqi bo'lgan Operator abonentlariga boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi uchinchi shaxslarning ofisi.

Cheklov miqdori – Abonentning shaxsiy Elektron hisob varag'idagi (balansidagi) pul mablag'larining eng kam miqdori, shunga ko'ra Operator Abonentga taqdim etiladigan aloqa xizmatlari hajmini cheklash yoki to'liq hajmda to'xtatish huquqiga ega.

Frod — jismoniy/xodim, yuridik shaxsning qasddan ruxsatsiz harakati yoki harakatsizligi yoki Operator tarmog'idagi resurslar va xizmatlardan noqonuniy foydalanish, Operator tomonidan taqdim etiladigan aloqa Xizmatlaridan foydalanishga, belgilangan qoidalar va tartib-qoidalarni buzgan holda, tegishli to'lovsiz, shuningdek, Operator yoki Abonentning pul mablag'larini egallashga qaratilgan harakat.

GSM shluzi - umumiy foydalanishdagi statsionar tarmoqqa yoki mobil operator tarmog'iga ulanadigan ko'p kanalli yoki bir kanalli mobil qurilma bo'lib, telefon qurilmasidan har qanday kiruvchi qo'ng'iroqlarni GSM shluzi kanallaridan biriga mahalliy telefon tarmog'i orqali statsionar telefon tarmog'iga yo'naltirish va ichki tarmoq sifatida qo'ng'iroqni narxlash imkonini beradi.

Elektron hisob - Abonentning olish imkoni bo'lgan xizmatlari hajmining pullik ekvivalentida ko'rsatilgan ma'lumotni o'zida saqlovchi Operatorning avtomatlashtirilgan hisoblash tizimidagi elektron fayl (keyingi matnda - Shartli miqdor).

IMEI kodi - (International Mobile Equipment Identifier) yoki xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodi (keyingi matnda IMEI-kod deb yuritiladi) — 15 raqamdan iborat bo'lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa abonent qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam;

Shartnomani ONLAYN rasmiylashtirish - Operatorning rasmiy veb-saytida Shartnoma shartlari bilan tanishish, Abonent tomonidan uning rekvizitlarini to'ldirish, ro'yxatdan o'tish blankasini Abonent vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlash orqali shartnoma tuzish. Bu Abonentning ushbu Shartnoma shartlariga rozi ekanini bildiradi;

ERI – bu Shartnomani onlayn ravishda rasmiylashtirishda ERI kalit sertifikatida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'yilgan, Shartnomani to'ldirishning to'g'riligi uchun mas'ul bo'lgan Abonentning vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosi.

1.4. Shartnoma shartlari Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq mustaqil belgilanadi. Tarmoqdagi ko'chma (uyali) radiotelefon aloqa xizmatlari, Abonent tanlagan xizmatlar to'plami va tarif rejasiga muvofiq, barcha Abonentlarga teng shartlarda ko'rsatilishi ta'minlanadi.

1.5. Operator tomonidan Abonentlarga ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha xizmatlar ro'yxati, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ijroiya organining normativ-texnikaviy hujjatlarini inobatga olgan holda, Litsenziya asosida, hamda Operatorga yoki O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tizimini tashkil qiluvchi telekommunikatsiya tarmoqlari Operatorlariga tegishli bo'lgan tarmoqlarning va aloqa vositalarining texnika imkoniyatlari bilan belgilanadi va Operatorning Narxnoma varaqlarida ko'rsatiladi. Xizmatlar ro'yxati texnikaviy, tashkiliy va/yoki moliyaviy sharoitlarga ko'ra vaqti-vaqti bilan o'zgarishi mumkin.

1.6. Abonent tanloviga ko'ra, Shartnomaning shartlarida abonent uskunalarini sotib olish va sotish bilan bog'liq munosabatlar nazarda tutilishi mumkin.

2. Shartnomani tuzish tartibi va shartlari.

2.1. Shartnoma Abonentning vakolatli shaxslari va Operator tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga Abonentning roziligini bildirgan holda Shartnomani Ro'yxatdan o'tish blankasini imzolash yo'li bilan tuziladi. Operator tomonidan imzoni faksimil vositada qo'yish orqali Shartnomani tasdiqlashga ruxsat beriladi.

2.1.1 Shartnomani onlayn ravishda rasmiylashtirganda, Shartnoma Abonentning vakolatli shaxslari tomonidan Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish blankasini ERI vositalari bilan imzolash orqali tuziladi

Shartnoma Abonent va Operator yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan Shartnomaning Ro'yxatdan o'tish shakli imzolanishi bilan tuziladi. Operator tomonidan imzoni faksimil nusxada ko'paytirish orqali Shartnomani sertifikatlashiga yo'l qo'yiladi.

2.2. Quyidagi hollarda operator Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish yoki Shartnoma tuzishda rad etish huquqiga ega:

- Abonent tomonidan talab qilinadigan xizmatlarni taqdim etish uchun Texnik imkoniyat bo'lmasa, shuningdek Operator tarmog'iga kirish uchun texnik imkoniyati bo'lmaganda;
- ushbu Shartnomada nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilmaganda;
- Operatorda Abonentga tegishli uskuna haqida u boshqa Abonent tomonidan yo'qotilgan yoki O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot bo'lganda;
- agar Abonent Shartnomani onlayn ravishda rasmiylashtirishda ERI Ro'yxatdan o'tish blankasini tasdiqlamasa;

- Operator ushbu Shartnoma yoki boshqa shartnomalar bo'yicha taqdim etilgan Xizmatlari uchun Abonentda mavjud bo'lgan qarzdorlik va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa holatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lsa.

2.3. Postpaid to'lov shartlari bilan ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilganda, Abonent Operatorga uning maxfiy ma'lumotlarini va aloqa xizmatlarini ko'rsatish jarayonida Operatorga ma'lum bo'lgan boshqa ma'lumotlarni qayta ishlashga shuningdek, ularni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan hollarda va maqsadlar uchun uchinchi shaxslarga, shu jumladan huquqni qo'llash funktsiyalarini amalga oshiruvchi shaxslarga yetkazishda rozilik beradi.

2.3.1. Shartnoma bo'yicha va/yoki Xizmat foydalanuvchilari doirasida o'zaro hamkorlik qilish maqsadida, me'yoriy hujjatlar talablarini bajarish maqsadida (Abonentlar – yuridik shaxslar uchun) aloqa shahslarining shaxsiy ma'lumotlari taqdim etilgan taqdirda, Abonent aloqa qiluvchi shahsining Operatorga ko'rsatiladigan Xizmatlar bo'yicha axborot va takliflarni olish, aloqa qiluvchi shaxs va Xizmatlaridan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini Operatorga uzatishga roziligini kafolatlaydi. Abonent shaxsiy ma'lumotlarni Operatorga uzatilishi to'g'risida

aloqa qiluvchi shaxs va Xizmatlardan foydalanuvchilardan oldindan xabardor qilinishini tasdiqlaydi.

2.4. Operatorning rasmiy Web-saytida joylashtirilgan «UNITEL» MChJ abonentlarining shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va himoya qilish siyosatiga muvofiq Operator abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini to'playdi, qayta ishlaydi va foydalanadi. Abonentga o'z xizmatlarini taqdim etish, Operator Hamkorlari va Operator vakillarining xizmatlarini taqdim etish to'g'risidagi Shartnoma shartlarini bajarish maqsadida, Operatorga uchinchi shaxslar va Operator tomonidan uchinchi shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini saqlab qolish uchun uchinchi shaxslarning majburiyatlari bo'yicha jiddiy shart bilan tuzilgan Shartnomalar asosida Operator tomonidan jalb qilinishi va ularni qayta ishlash xavfsizligi, jumladan, yetarli darajada himoyalangan mamlakatlarga transchegaraviy ma'lumotlar uzatish, konvergent xizmatlar, taqdim etilayotgan xizmatlar va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, marketing faoliyatini amalga oshirish, yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish va taklif qilish, abonentlar va foydalanuvchilarga taqdim etilayotgan xizmatlar shartlari va xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risida ma'lumot berish, Abonent va Operatorni xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq firibgarlik harakatlaridan himoya qilish, davlat organlariga majburiy hisobot berish, debitor qarzdorlikni undirish, shuningdek abonent va foydalanuvchilarning tanlov va reklama kompaniyalarida ishtiroki, shuningdek Operator va uchinchi shaxslarning amaldagi qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishdan iborat.

2.4.1 Operator Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadiga erishilgan vaqtgacha davrda o'zining dasturiy-apparat vositalaridan foydalanib Abonentning ma'lumotlarini qayta ishlaydi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash deganda, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlar (operatsiyalar), jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, egasiz qoldirish, blokirovkalash va yo'q qilish tushuniladi.

2.5. Operator Shartnoma bo'yicha aloqa Xizmatlarini xizmat ko'rsatishni ogohlantirmasdan to'xtatib qo'yishga huquqiga ega:

- rasmiy ochiq manbalarda yuridik shaxs tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanganda; (Operator tomonidan aloqa Xizmatlarini xizmat ko'rsatishni qayta tiklash, Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida moliya-xo'jalik faoliyatini tasdiqlovchi tegishli organ hujjati taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi).

2.6. Operator ogohlantirishsiz Shaxsiy kabinetga kirishni cheklash/to'xtatish huquqiga ega:

- rasmiy ochiq manbalarda yuridik shaxs tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanganda;

- Abonent Shaxsiy kabinet orqali frod harakatlarini sodir etilishining aniqlangani taqdirda.

3. Operatorning huquq va majburiyatlari

3.1. Operator quyidagilarga majbur:

1) Abonentga ushbu Shartnoma amal qilish davrida ishga tushirilgan SIM/ eSIM karta va Abonent raqamini taqdim etish;

2) Xizmat ko'rsatish hududida bo'lganda Abonentga Xizmatlarini taqdim etish;

3) Xizmat doirasi hududida Abonentning tezkor operativ xizmatlarga (101- yong'indan saqlash, 102-militsiya, 103- tez tibbiy yordam, 104-avariya gaz xizmati, 1050-FVV xizmati) tunu-kun bepul qo'ng'iroq qilish imkonini ta'minlash;

4) Abonentlarga operator Xizmatlari to'g'risida ishonchli ma'lumotni taqdim etish;

5) abonentlarga operator Xizmatlarini xizmat ko'rsatish jarayonida aniqlangan aloqa xizmatlarining kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

- 6) Abonent uchun aloqa xizmatlaridan foydalanish va shu xizmatlar uchun hisob-kitoblar, aloqa sifati borasidagi maslahatlarni tashkillashtirish;
- 7) Abonentga Operator bilan uyali aloqa tarmoq Operatorlari bilan tuzilgan tegishli shartnomalar asosida O'zbekiston Respublikasi va chet el (rouming)da Abonentga boshqa tarmoqlar xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish, agarda shunday xizmat Abonent tomonidan tanlagan bo'lsa;
- 8) Aloqa xizmatlari uchun to'lamaganligi yoki abonent to'lovi kiritilmaganligi uchun uzilgan abonentni aloqa xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirgan va tanlangan tarif rejasiga muvofiq oldindan to'lash bilan qarzdorligini so'ndirganidan so'ng tarmoqqa ulash.
- 9) Tanlangan hisob-kitob tizimiga muvofiq Abonentga taqdim etilgan Xizmatlar uchun Abonent tomonidan ko'rsatilgan hisob-faktura yoki hisob-fakturaning rekvizitlariga binoan taqdim etish.
- 10) elektron hisob-fakturalar orqali Abonentga Aloqa xizmatlari uchun hisob-kitoblar yoki hisob-fakturalari (keyingi hisob-kitob davridan boshlab) berish Abonent tegishli tarif rejani tanlaganda, Abonentga Abonent uskunasi ushbu Shartnomada belgilangan shartlar asosida taqdim etish.
- 11) Abonent tomonidan tegishli tarif rejasi tanlaganda abonentga ushbu Shartnomada belgilangan shartlar asosida abonent uskunasi sotish

3.2. Operator quyidagi huquqlarga ega:

- 1) ushbu Shartlarga o'zgartirishlar kiritish, Abonentga tegishli o'zgarishlar haqidagi ma'lumotni SMS xabarlarini yubrish yoki Internet tarmog'idan Operator saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yo'li bilan va boshqa axborot vositalari yordamida xabardor qilish. Shu bilan birga, tegishli ma'lumot/e'lon qilingan kundan boshlab 15 kun ichida Operator Abonentdan bunday o'zgarishlarni to'liq yoki qisman rad etilishi haqidagi xabarni olmasa, ushbu o'zgarishlarga Abonent rozilik bildirgan deb hisoblanadi;
- 2) Abonentga ushbu Shartnoma shartlarini buzganlik hollarda aloqa xizmatlarini taqdim etishni to'xtatiladi (Operatorning tariflar bo'yicha buzilishlar to'liq bartaraf etilgandan so'ng, aloqa Xizmatlari qayta tiklanadi);
- 3) Agar Abonentda tarmoqqa ulangan bir nechta Abonent raqamlar mavjud bo'lsa, Operator ko'rsatilgan aloqa xizmatlari uchun to'lovni Abonent raqamlarning biridan Elektron hisobidagi pul mablag'ini yechib olish yoki Abonent tomonidan biror-bir Abonent raqamidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilsa, barcha Abonent raqamlarni o'chirish huquqiga ega;
- 4) Abonentni tarif rejalar, tizim, shartlar, shakllar va Xizmatlari uchun to'lov shartlarini o'zgartirilishi bo'yicha, ommaviy axborot vositalari orqali ushbu o'zgarishlarning kiritilishidan 10 kun oldin xabar berishi lozim (bundan tashqari, Abonentga axborotni sms-xabari orqali, internet yoki boshqa yo'llar bilan xabardor etilishi mumkin);
- 5) Operator qonunchilikda kursatilgan hollarda ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida abonentga taqdim etilgan abonent raqamini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega;
- 6) aloqa xizmatlarini uzluksiz ulash uchun cheklovlarni o'rnatish;
- 7) Abonent tomonidan shartnoma shartlari buzilgan taqdirda operator shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega;
- 8) Oxirgi tranzaksiya qilingan kundan boshlab uch oy o'tgach (yoki to'lanmaganlik uchun uzilgan kundan boshlab 30 kun) Operator ajratilgan raqamning tarmoqqa kirishini to'xtatish va raqamni sotish huquqini o'zida saqlab qoladi.

9) Operator hodimlarining shaxsiyatini xaqoratlash; Operator hodimlari bilan muloqot chog'ida noma'qul so'zlarni ishlatish; Operatorning Aloqa markaziga uning faoliyat doirasiga kirmaydigan savollar bilan bir-necha marta murojaat qilish; Operatorning Aloqa markaziga bir-necha marta to'liq sukut saqlagan holda qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va Operator tomonidan Operatorning Aloqa markazi hodimlariga ma'naviy noqulaylik tug'diradigan va shu kabi Abonentlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Operatorning tartib-qoidalariga mos ravishda xizmat ko'rsatish imkoniyatini cheklaydigan deb baholangan boshqa harakatlarni amalga oshirganda Abonent uchun Operatorning Aloqa markazi xizmatlaridan foydalanishni cheklash;

10) Operator O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

4. Abonentning huquq va majburiyatlari

4.1. Abonent quyidagilarga majbur:

1) amaldagi Yo'riqnomaga muvofiq faqatgina sertifikatlangan va ro'yxatdan o'tgan Abonent uskunalaridan foydalanish, muayyan hududda (aeroport, samolyot va boshqa) amalda bo'lgan maxsus farmoyish va qoidalarini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xalaqit qiladigan yoki xavfli vaziyat yuzaga kelishi imkonini oldini olish cheklovlarini (tibbiy muassasalar, texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalari, yoqilg'i saqlash va qayta ortish hududlari, portlash ishlarini o'tkazish va boshqa joylarni) inobatga olib foydalanish.

2) Operator Xizmatlari uchun to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda to'lovni amalga oshirish;

3) Operatorga bank rekvizitlari, faktik joylashgan manzili va yuridik manzili yoki ro'yxatga olish manzili haqida ishonchli ma'lumotlar, shuningdek ushbu Shartnomaning maqsadlari uchun foydalaniladigan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish kerak. Operatorga ushbu ma'lumotlarning o'zgarishi haqida 7 kun ichida yozma xat asosida xabar berish kerak;

4) lotereyalar, ovoz berishlar, tanlovlar, viktorinalar, reklamalar, so'rovlar, ommaviy xabar yuborishlar, telefoniya tarmoqlariga kirish shulzarini o'rnatilishi (yoki qurilmalar), Internet telefoniya va boshqa tadbirlarni o'tkazishda Abonent raqamdan, shu jumladan yagona identifikatsiya kodlaridan foydalanmaslik, uskunalarining va aloqa qurilmalarining ish jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazilishiga va Operatorga zarar yetkazilishi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan talablarni buzganlik va daromad o'zlashtirilishiga tenglashtirish;

5) SIM/ eSIM -karta va/yoki Abonent uskunasi yo'qolishi haqida darhol xabar berish;

6) uchinchi shaxslar SIM/ eSIM -kartadan ma'lumotni olmaslikga, ma'lumotlarni ko'chirish, SIM/ eSIM -karta nusxalarini yaratish va shu kabi o'xshash harakatlarni amalga oshirmaslik uchun taqdim etmaslik, shuningdek uchinchi shaxslar SIM/ eSIM -kartadan vaqtinchalik foydalanish imkonini ta'qiqlash uchun ushbu bandeda ko'rsatilgan noqonuniy harakatlarni oldini olishni ta'minlash;

7) Operatoridan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi radiochastotalar bo'yicha davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasini olishni talab qiladigan Abonent uskunasi harid qilinganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablariga rioya qilish, shuningdek, ushbu Shartnomaning talablariga binoan, Operator tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarning har qanday turlari uchun belgilangan qoidalar va ko'rsatmalarning talablariga rioya qilish.

8) Operatorning www.beeline.uz rasmiy saytida e'lon qilingan va ushbu hujjatga kiritiladigan barcha o'zgarishlarni qabul qilish, taqdim etilgan xizmatlardan foydalanish Qoidalariga rioya qilish.

- 9) frod harakatiga mos keladigan xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik va ularga yo'l qo'ymaslik.

4.2. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

- 1) tarmoqdan telefon so'zlashuvlari uchun, O'zbekiston Respublikasi texnika normativlari va standartlari hamda ushbu Shartnoma qoidalariga muvofiq bo'lgan, Operator tomonidan Tarmoqda ruxsat etilgan texnik usullarda axborot uzatish uchun foydalanish;
- 2) operator va uning Vakolatli ofislari, ularning ish tartibi va Operator ko'rsatadigan aloqa xizmatlari to'plami to'g'risida zarur bo'lgan va ishonchli axborotni talab qilish;
- 3) operator tomonidan O'zbekiston Respublikasi texnika normativlari va standartlari hamda ushbu Shartnomaga muvofiq o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatishni olish;
- 4) hisob-kitob tartibini, Tarif rejani, Operator tomonidan belgilangan tartibda taqdim etiladigan aloqa Xizmatlar majmuini o'zgartirish;
- 5) Abonent uskunasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu Shartnomada belgilangan shartlar va tartib asosida Tarmoqqa ulanish;
- 6) ushbu Shartnomada aytib o'tilgan shartlar Operator tomonidan buzilgan taqdirda, Operatorning aloqa xizmatlaridan voz kechish va Shartnomani taxmin qilinayotgan bekor qilish muddatidan kamida 5 ish kuni oldin Operatorni yozma ravishda ogohlantirib bir taraflama bekor qilish. Bunda Abonent aloqa Xizmatlari bo'yicha Operator oldidagi qarzini qoplaydi;
- 7) o'z huquqlari buzilgan taqdirda vakolatli davlat organlariga yoki sudga murojaat qilish;
- 8) O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan yagona raqamlar bo'yicha favquloddagi tezkor xizmatlarni chaqirganda, aloqa xizmatlaridan bepul foydalanish.

5. Operator tomonidan ko'rsatilayotgan Xizmatlarining narxi

5.1. Barcha Xizmatlari tariflari Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi, Shartnomaga ilova qilingan Narxnoma ro'yxati shaklida aks ettiriladi.

5.2. Operator Xizmatlarining tariflari O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Operator tomonidan belgilanadigan shartli birliklarda belgilanadi.

5.3. Muayyan Operator Xizmatlari uchun tarifikatsiya birligi va tarifikatsiya tartibi Operator tariflarida belgilanadi. Operator aloqa xizmatlari tarifikatsiya birligining hajmini va to'liq bo'lmagan tarifikatsiya birligini hisoblash tartibini mustaqil ravishda belgilashga haqli.

5.4. Javob signali chaqirilayotgan tomon javobiga tenglashtiriladigan Abonent uskunasi quyidagilar kiradi:

- 1) ma'lumotni avtomatik qabul qilish rejimida ishlaydigan modem yoki faksimil apparati;
- 2) ovozli pochta bilan ta'minlangan har qanday abonent qurilmasi;
- 3) avtomatik raqamni aniqlash bilan ta'minlangan abonent qurilmasi;
- 4) chaqirilayotgan tomon yo'qligida ma'lumot almashish imkoniyatini ta'minlovchi (yoki imitatsiya qiluvchi) boshqa abonent qurilmasi.

6. Ko'rsatilgan Operator Xizmatlari uchun Abonent bilan hisob-kitob qilish

6.1. Operator Abonentga taqdim etilgan Xizmatlari va Abonent uskunalarini sotish uchun hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Operator tomonidan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslar jalb qilinishi mumkin.

6.2. Xizmatlar uchun to'lov aloqa xizmatlarini taqdim etish vaqtida amaldagi tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. Ko'rsatilgan Xizmatlari uchun barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi. Xizmatlar narxiga aksiz solig'i va Qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) kiritilgan.

6.4. Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar uchun hisob-fakturalari elektron hisob-fakturalarni almashtirish xizmati orqali rasmiylashtiriladi. Abonent tomonidan hisob-fakturani olmaganligi uni aloqa xizmatlari uchun to'lov majburiyatidan ozod qilmaydi.

6.4.1. Rouming va Xalqaro aloqa uchun kafolatli to'lovlar operator tomonidan qarzdorlik majburiyatlarini qoplash uchun ishlatiladi (agarda mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlar buzilgan taqdirda).

6.5. Kredit hisob-kitob tizimi

6.5.1. Shartnomani imzolaganidan so'ng, Abonentga Operatorning joriy Tariflari bo'yicha Abonent tomonidan tanlangan xizmatlari doirasi va miqdori bo'yicha hisob taqdim etiladi. Ushbu hisob taqdim etilganidan so'ng Abonent tomonidan to'lanishi kerak. Operator Xizmatlarni taqdim etishda hisob to'lamagunga qadar Abonentga xizmat ko'rsatmaslik huquqiga ega.

6.5.2. Shartnoma tuzishda majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Abonentga xizmatlar ko'rsatish oldindan to'lov shartlari asosida amalga oshiriladi. Dastlabki to'lov har bir Abonent raqami bo'yicha tanlangan xizmatlar ro'yxati va kompaniyaning amaldagi tariflariga muvofiq oyning qolgan kunlariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Operator Abonent uchun taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini belgilash huquqiga ega - Kredit chegarasi.

6.5.3. Ko'rsatilgan Xizmatlari uchun Operator Abonentga har oyda Operatorning amaldagi tariflariga muvofiq hisob-fakturalarni taqdim etadi. Har bir hisob-fakturalarni Abonentga chiqarilgan kundan boshlab 15 kun ichida to'lanishi kerak.

6.5.4. Abonent hisob-fakturani qabul qilmasa yoki qabul qilishdan bosh tortsa, Abonentni aloqa Xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lashdan ozod qilmaydi.

6.5.5. To'lov sanasi Operator hisob raqamiga mablag' tushgan sana hisoblanadi yoki Operator kassasiga pul mablag'i tushgan sana hisoblanadi.

6.5.6. Abonentga hisob-fakturani taqdim etilgan kundan boshlab 15 kun mobaynida abonentga taqdim etilgan hisob-fakturada ko'rsatilgan to'liq to'lov miqdori amalga oshirilmasa, Operator Abonentga aloqa xizmatlarini taqdim etishni to'xtatishga haqli. Operator tomonidan aloqa xizmatlari ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish davri mobaynida abonent to'lovi Operatorning joriy tariflariga muvofiq, Tarmoqdan Abonent raqami o'chirilgan sanaga qadar hisoblanadi.

6.5.7. Abonentga hisobni taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida hisob-fakturada ko'rsatilgan to'lov miqdori Operatorning hisob raqamiga tushmasa, Operator Abonentga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiy to'lov summasining 0,2 foiz miqdorida penya solishga haqli.

6.5.8. Agar Abonent kredit limit miqdoridan oshsa, Abonent taqdim etilgan aloqa xizmatlari miqdorida vaqtinchalik avans to'lovni amalga oshirishi kerak. Abonent oldindan to'lovni yoki hisob-fakturani to'lamaguniga qadar Operator aloqa xizmatlarini taqdim etishni cheklash huquqiga ega.

6.5.9. Kafolat to'lovlar Abonent Shartnomasi bekor bo'lgandan keyin qarzdorlik majburiyatlarini to'lash uchun ishlatiladi. Kafolatli to'lovlarning qoldig'i barcha hisob-kitoblarni Shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirganidan keyin Abonentga qaytariladi.

6.5.10. Abonent tomonidan hisob-fakturani to'lamasa, Operator Abonentdan bajarilmagan majburiyatlar va zararlarni qoplash uchun qonunchilikda belgilangan choralarni ko'rish huquqiga ega.

6.5.11. Operator aloqa xizmatlariga xizmat ko'rsatishni to'xtatmaslik va ma'lum vaqt davomida «elektron hisob» ning nol qiymatidan kamroq bo'lganda ham aloqa xizmatidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash huquqiga ega. Oxirgi Tranzaksiya sanasidan keyin 90 kun mobaynida Abonentning Tranzaksiya amalga oshirmasligi bu Abonentning Shartnomani bajarilishini bir tomonlama rad qilishi hisoblanadi.

6.5.12. Agar «elektron» hisobdagi Shartli mablag' tugamagan bo'lsa va ketma-ket 90 kun mobaynida hech qanday Tranzaksiya bo'lmagan bo'lsa, Operator Abonent raqamiga xizmat ko'rsatilganligi uchun Abonentning «elektron» hisobidan pul mablag'larini yechib olish huquqiga ega.

6.5.13. Tomonlar hisob-kitobida hisobot davri bir kalendar oyiga tengdir (oyning birinchi kuni – hisobot davrining boshlanishi, oyning oxirgi kuni – hisobot davrining oxiri, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa.).

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Operator Abonentning zararini qoplash bo'yicha hech qanday majburiyatlarni, shu jumladan aloqa xizmatlari uzilishi yoki aloqa xizmatlari sifatining yomonlashuvi natijasida yuzaga kelgan daromad yo'qotishlarni qoplash bo'yicha o'z zimmasiga olmaydi. Abonentga shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun Operatorning javobgarligi miqdori O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilanadigan jarimalar miqdori bilan cheklanadi.

7.2. Ko'rsatilgan Xizmatlarining kamchiliklari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda bartaraf qilinishi kerak.

7.3. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan o'z majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Abonent Operator oldida javobgar bo'ladi va Operatorga to'liq hajmda yetkazilgan zararni shuningdek, Operator mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

7.4. Abonentning harakatlari Operatorga zarar yetkazishi yoki olib kelishi mumkin bo'lgan hollarda Operator aloqa xarajatlarni kamaytirishda Operator aloqa xizmatlarini xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega.

7.5. Abonentning SIM/ eSIM kartasining yo'qotib qo'yishi, o'g'irlanishi, yoki boshqa holatlarda yo'qotilganda, Abonent tomonidan mazkur Abonent raqamining bekor qilish to'g'risida yozma ariza qabul qilgunga qadar taqdim etiladigan aloqa xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga javobgardir.

7.6. SIM/ eSIM -kartadan uchinchi shaxslar foydalanishi Abonentni Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

7.7. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq abonent quyidagi holatlarda ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi:

- 1) o'rnatilgan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda telekommunikasiya tarmog'idan foydalanish va xalqaro trafikni o'tkazish maqsadida telekommunikasiya tarmog'idan

qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, shuningdek ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) saqlash va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish;

2) kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikasiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, yoxud o'tkazish va tarqatish;

3) shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun SIM/ eSIM -kartaning uchinchi shaxslarga berilishi.

7.8. Operator aloqa sifatining yomonlashuviga yoki uning to'xtatilishiga javobgar emas, agar bunday yomonlashuv yoki to'xtatish radio to'lqinlarining tarqatilishi va qo'llanilishi tabiiy sharoitlari, yaqin yoki ichki binolar, tunnellar, yer to'lalar va boshqa yer osti inshootlarining joylashuvi natijasida bo'lsa; yer va binolarning mahalliy xususiyatlari; meteorologik sharoitlar va Operatorning ta'sir qilishi mumkin bo'lmagan boshqa sabablar.

7.9. Operator aloqa xizmatlarining sifati yomonlashuviga, bunday salbiy holatlar uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilayotgan mahalliy va xalqaro aloqa kanallarining sifatsizligi oqibatida axborot uzatishda uzilishlar va/yoki kommutatsiya ulanishlar, Operator vakolatidan tashqarida bo'lgan mahalliy simli telefon liniyalar, operatorlarning uskunalari, xalqaro va shaharlararo aloqa operatorlarining uskunalari sifati uchun javobgar emas.

7.10. Abonent buyurtmasi asosida uchinchi shaxslar tomonidan Operator tarmog'i orqali yuboriladigan kontent taqdim etilmasligi, yoki vaqtida taqdim etilmasligi, uning mazmuni va sifati uchun Operator javobgar emas.

7.11. Operator shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, aloqa xizmatlari ko'rsatish sifati e'lon qilinganligi, ularni ko'rsatish muddatlari va kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini buzganligi, operator xizmatlari to'g'risidagi axborotning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yoki ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda noto'g'riligi uchun abonentga javobgar bo'ladi

8. Abonentning operatorga bo'lgan e'tirozlarini ko'rib chiqish tartibi

8.1. Aloqa xizmatlari bajarilmaganda yoki tegishli tarzda bajarilmaganida Abonent Operatorga e'tiroz bildiradi.

8.2. E'tirozlar yozma shaklda bildiriladi va Operator tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

8.3. Operatoridan Abonent sotib olgan Abonent jihozining sifatiga bo'lgan e'tirozlar Narxнома varag'ida (Price-list) ko'rsatilgan muddat ichida topshirilishi kerak (ushbu Shartnomaga 1-Ilova).

8.4. Xizmatlar ko'rsatilmaganligi, vaqtida ko'rsatilmaganligi yoki sifatsiz ko'rsatilganligi bilan bog'liq e'tirozlar bunday xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab 6 oy davomida qabul qilinadi.

8.5. Operator tomonidan olingan hisob-faktura bo'yicha bo'lgan e'tirozlarni, hisobning chiqqan kundan boshlab 30 kun mobaynida taqdim etilishi kerak, Abonent belgilangan muddat tugagandan so'ng, hisobni shartli va to'liq hajmda to'lashi shart.

8.6. E'tirozli murojaatlarga Operator tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida yozma javob berilishi shart.

8.7. Aloqa xizmatlaridan Tarmoqqa ruxsatsiz ulanish orqali uchinchi shaxslarning foydalanishi natijasida nizolar yuzaga kelganda, amalga oshirilgan telefon so'zlashuvlarining mansubligini aniqlash maqsadida belgilangan tartibda texnikaviy surishtiruv o'tkazilishi lozim.

9. Fors-major

9.1. Ushbu Shartnoma maqsadlarida “Fors-major” deganda, Fors-major holati to’g’risida e’lon qilgan Tomon barcha oqilona hatti-harakatlariga qaramay, bu hodisa xoh O’zbekiston Respublikasida, xoh undan tashqarida sodir bo’lishidan qat’iy nazar, oldini olib bo’lmaydigan, yengilmas va cheklab bo’lmaydigan hodisalar, shu jumladan va shu bilan cheklanib qolmay, urush, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining qarorlari, embargo, yong’inlar, portlashlar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar tushuniladi; biroq, pul yo’qligi, yoki yetishmasligi Fors-major holati bo’lib hisoblanmaydi.

9.2. Har qaysi Fors-major holati yuzaga kelganda, shu Fors-major holati ushbu Shartnoma bo’yicha majburiyatlarini bajarishga ta’sir ko’rsatadigan (pul to’lovi holatidan tashqari) Tomon (“Jabrlangan Tomon”) ikkinchi Tomonning ziyoni va zararini qisqartirish va Jabrlangan Tomonning ushbu Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini tiklash uchun barcha zarur choralarni qo’llash, zudlik bilan ikkinchi Tomonni mavjud bo’lgan holatlar to’g’risida yozma ravishda xabardor qiladi. Fors-major to’g’risidagi xabarnomada: (a) Fors-major hodisasi ko’rsatilgan, (b) uning Jabrlangan Tomon o’z majburiyatlarini bajarish imkoniyatlariga ko’rsatadigan ta’sirini oqilona va batafsil bayon etilgan, (c) shu Tomondan ikkinchi Tomon ziyon yoki zararlarini qisqartirishga hamda Jabrlangan Tomon ushbu Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarish qobiliyati tiklanishiga qaratib qo’llanilayotgan choralar bayon etilgan bo’lishi kerak.

Yuzaga kelgan favquloddagi holatlar to’g’risida xabar bermaslik yoki vaqtida xabar bermaslik ikkinchi Tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligidagi javobgarlikdan ozod qilish uchun shu holatlardan birontasini asos sifatida ko’rsatish huquqidan mahrum qiladi.

9.3. Agar Fors-major tufayli Tomonlarning biri ushbu Shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlari bajarilishini kechiktirsa, bunday kechiktirish muddatlari ushbu Shartnomada nazarda tutilgan muddatlarni hisoblashda inobatga olinmaydi, va shu Tomon Fors-major hodisasi sababli bajarmaslik doirasidagi Shartnoma bo’yicha olingan majburiyatlar kechiktirib bajarilganligi uchun oqlanadi, biroq shu sharti bilanki, Fors-major tufayli Tomonlardan birontasi Fors-major to’g’risidagi Xabarnoma jo’natilganidan keyin 60 (oltmish) kun davomida o’zining biror majburiyatini bajara olmasa, tomonlar zudlik bilan ushbu Fors-major holati oqibatlarini aniqlash maqsadida maslahatlashib, Tomonlar ixtiyoriga ko’ra vaziyatga qarab tegishli zarur choralarni qo’llashi lozim. Agar Tomonlar Fors-major to’g’risidagi Xabarnoma topshirilgan kundan boshlab 90 (to’qson) kun mobaynida o’zaro maqbul choralarni ko’rishga kelisha olmasalar, Tomonlarning har biri ushbu Shartnomani bekor qilishi mumkin.

10. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish holatlari

10.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlardan biri uni bekor qilish istagini bildirmagunga qadar amal qiladi.

10.1.1 O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G’aznachiligi orqali hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi mijozlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq va abonent shartnomasining ajralmas qismi bo’lgan qo’shimcha kelishuv tuziladi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G’aznachiligi orqali hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi mijozlarning alohida toifasi uchun qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinadigan va abonent shartnomasining ajralmas qismi bo’lgan qo’shimcha kelishuv tuziladi.

10.2. Shartnoma bekor qilinganda SIM/ eSIM -kartani tarmoqqa ulash uchun to’lov, shuningdek SIM/ eSIM -kartaning narxi abonentga qaytarilmaydi. Abonentga tegishli bo’lgan abonent uskunasi Operator tomonidan harid qilinmaydi. Chiroyli (oltin) raqamni tanlash xizmati uchun to’lov shuningdek, boshqa xizmatlarni ulash uchun bo’lgan to’lovlarni Operator tomonidan qoplanmaydi.

- 10.3.** Abonent Shartnomani bekor qilinishidan taxmin qilinayotgan sanasidan 5 ish kundan kechiktirmasdan bu haqida Operatorni yozma ravishda xabardor qilib, Shartnomani bir taraflama bekor qilish mumkin.
- 10.4.** Quyidagi hollarda Shartnoma Operator tomonidan bir taraflama bekor qilinishi mumkin:
- 1) bajarishning imkoni bo'lmaganda (yengib bo'lmaydigan hodisa, texnik imkoniyati yo'qligi va sh.k. sababli);
 - 2) majburiyatni bajarish mumkin bo'lmagan davlat organi hujjatining chiqarilishi, xususan, belgilangan qonuniy tartibda Operator litsenziyasini qaytarib olish, amal qilishini to'xtatib qo'yish, bekor qilish;
 - 3) Operator tarafidan taqdim etilgan aloqa Xizmatlaridan foydalanish chog'ida telekommunikatsiyalar sohasidagi tadbirkorlik faoliyati tizimining Abonent tarafidan buzilishi, shuningdek Abonentning ularga qisqa xabarlar yo'llash va telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish orqali Abonent/Operatorni haqoratlovchi va obro'siga putr yetkazuvchi bezorilik harakatlari;
 - 4) Abonent tarafidan frod yoki frod qilishga harakat aniqlanganda;
 - 5) 6.5.6, 6.5.11, 6.5.12, 7.7 bandlarida nazarda tutilgan vaziyatlarda Operator Aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatadi;
 - 6) ushbu Shartnomada yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 10.5.** Agar Shartnoma bekor qilinganda, Abonent hisobida foydalanilmagan oldindan to'lov miqdori qolgan bo'lsa, Operator Abonentga O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi orqali imzolangan solishtirma dalolatnomasiga ko'ra qaytaradi.
- 10.6.** Ushbu Shartnoma tomoni sifatida Abonent o'zgarganda (shu jumlandan, ishga tushirilgan SIM/ eSIM -karta meros qolganda, sovg'a qilib olinganda), sobiq Abonent bilan Shartnoma bekor qilinadi va yangi Abonent bilan aloqa xizmatlari ko'rsatilishi yuzasidan Shartnoma tuziladi. Bunda operator (amaldagi tarif rejasiga muvofiq) Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini qayta rasmiylashtirish bilan bog'liq to'lovni va sobiq Abonentning qarzi qoplanishini talab qilishga haqli.

11. Boshqa shartlar

- 11.1** Xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi. Taraflar kelishuvga erishmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.
- 11.1.**
- 11.2.** Abonentga telefon va elektron aloqa kanallari orqali abonentlik korrespondensiyalarni xatlarni ochiq aloqa kanallari (Internet, faks) orqali uzatishga roziligini tasdiqlaydi.
- 11.3.** Operatorning aloqa Xizmatlarining xizmat ko'rsatishida yuzaga keladigan Abonent bilan o'zaro munosabatlarni o'zbek, rus tillarida, shu jumladan qisqa matnli xabarlar almashinuvida amalga oshiriladi.
- 11.4.** Ma'lumot uzatishda xizmatlarning sifatini tavsiflovchi texnik ko'rsatkichlar (ma'lumotlarni uzatish tarmog'idagi aloqa liniyalarining tarmoqli kengligi, axborot paketlarining yo'qotilishi, ma'lumot paketlarining uzatilishida vaqtni kechiktirilishi, axborot uzatishning ishonchliligi) operator tomonidan axborot-ma'lumotnoma materiallarida ko'rsatilib o'tiladi.
- 11.5.** Ba'zi aloqa xizmatlari uchun xizmatlardan foydalanishning alohida shartlarida Abonentga aloqa seansi boshlangan vaqtda xabar qilinadi. Abonentning aloqa sessiyasini davom ettirish bo'yicha keyingi harakatlari uning ushbu shartlarga so'zsiz roziligi hisoblanadi. Abonent

xizmat ko'rsatish shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, abonent aloqa sessiyani to'xtatishi kerak.

- 11.6.** Ushbu Shartnomaning shartlari va uning ajralmas qismi bo'lgan barcha ilovalar Rus tilida tuzilgan va O'zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu Shartnomaning biror qoidasini talqin qilishda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, Rus tilidagi talqini ustunlik kuchiga ega bo'ladi.